



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil
MAXSUS SON

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti
sifatida ommaviy axborot vositalarining
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**
Intellektual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy
asoslari

70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI

Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI

Advokatlar maqomi e'tibor markazida

79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI

The new constitution of Uzbekistan:
A catalyst for democratic advancement

UDC: 347.965(045)(575.1)

ADVOKATLAR MAQOMI E'TIBOR MARKAZIDA

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti talabasi
ORCID: 0009-0007-4908-1234
e-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda advokatlar masalasiga davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida alohida e'tibor berilayotganligi, ayniqsa, ularning faoliyatini elektronlashtirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sa'y-harakatlar muntazam amalga oshirilayotgani alohida ta'kidlangan. Unda advokatlar maqomiga davlat e'tiborining yuksak namunasi sifatida har bir fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlanishi uchun advokatura sohasiga Konstitutsiya negizida kiritilgan alohida o'zgarishlar huquqiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, advokatura, islohot, advokatlar maqomi.

СТАТУС АДВОКАТОВ В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ

Шодиева Ирида Соатмурод кизи,
студентка факультета частного права
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье подчёркивается, что в нашей стране уделяется особое внимание теме адвокатуры как одной из приоритетных задач государственной политики, на регулярной основе реализуются меры, направленные на совершенствование их деятельности в новом электронном формате и всестороннюю поддержку. В ней на основе правовых источников анализируются особые изменения в Конституции, внесённые в целях обеспечения прав и свобод каждого гражданина по теме адвокатуры, с точки зрения высокого внимания государства к статусу адвокатов.

Ключевые слова: Конституция Узбекистана, законы, адвокатура, реформа, статус адвокатов.

THE STATUS OF LAWYERS IS IN THE CENTER OF ATTENTION

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi
Student of the Faculty of Private Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, it is emphasized that special attention is paid to the issue of lawyers in our country as one of the priority tasks of the state policy, especially that efforts aimed at the electronicization of their activities and comprehensive support are being carried out on a regular basis. In it, as a high example of the state's attention to the status of lawyers, in order to guarantee the rights and freedoms of every citizen, special changes made to the legal profession on the basis of the Constitution are analyzed on the basis of legal sources.

Keywords: Constitution of Uzbekistan, laws, legal profession, reform, status of lawyers

Bugungi taraqqiyot davrida qonun ustuvorligi va uni ta'minlash katta ahamiyatga ega. Ya'ni davr o'zgargan sari ijtimoiy hayot ham tubdan rivojlanib bormoqda. Qaysi sohaga yuzlanmang, qaysi jabhaga boqmang, ulkan imkoniyatlar eshigi ochiq turibdi. Jumladan, asosiy qomusimizning referendum asosida o'zgartirilishi, u asosida chiqarilgan turli normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilishi shular jumlasidandir.

Ma'lumki, O'zbekistonni huquqiy demokratik davlat va jamiyatni komil shaxslardan iborat fuqarolik jamiyatiga aylantirish davlatimizning eng asosiy tamoyil va maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ammo ushbu maqsadga erishish esa juda katta mehnat talab etadi. Jumladan, ushbu yo'lda mamlakatimizda, eng avvalo, xalqaro e'tirof etilgan normalar tatbiq etilishi lozim. Undan tashqari, xalqning milliy an'analari hamda turmush sharoitiga mos bo'lgan, fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarining kafolatlangan holda tatbiq etilishi ham oliy masala, desak mubolag'a bo'lmaydi. Biroq davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlash doimo mukammal va hech qanday bo'shliqlarsiz, izchillik bilan hal etilishi kerak. Bu borada qilinayotgan ko'plab o'zgarishlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, davlatimiz ichki huquq tizimi, ya'ni milliy huquq tizimi negizida Konstitutsiya va qonunlar yotadi, ya'ni qonunchilikni, asosan, ular tashkil qiladi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, hozirda inson huquqlarini ro'yobga chiqarish va kafolatlash nihoyatda muhim va dolzarb vazifadir. Chunki bu uchun davlat o'z oldiga juda ham katta mas'uliyatni oladi, u orqali davlatning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy holati qaror topadi, umuman olganda, shaxs, jamiyat va davlatdek bir-biriga bevosita bog'liq bo'lgan uch tomonlama munosabat vujudga keladi. Ana shu subyektlarning birgalikda zamon talablari yordamida ishlashi esa har birim-

iz uchun ulkan yutuq va tinchligimiz, osoyishtaligimiz garovidir.

Yurtimiz hayotining barcha sohalari-da amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning bosh maqsadi – inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yaratishga qaratilgan. Jahon hamjamiyati oldida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bugungi kunda har qachongidan ko'ra dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Har bir davlatda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha o'ziga xos mexanizmlar yaratilgan. Bular ichida advokatura institutining ham o'ziga xos alohida o'rni mavjud.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida advokatura sohasiga alohida e'tibor qaratilayotgani hech kimga sir emas. Ma'lumki, advokatura – fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatuvchi mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashma va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning muhim bo'g'inlaridandir. Ayniqsa, ushbu organning bevosita aholi bilan ishlashi, shuningdek, fuqarolarning qonuniy vakili bo'la olish xususiyati o'zgarishlar uchun asos hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, sud-huquq tizimida tegishli islohotlar bo'layotgan bir paytda advokatura tizimini ham samarali tashkil etish, uning chinakam mustaqilligini ta'minlash, ayniqsa, advokatlar daxlsizligini alohida belgilash uchun ham qonunchilik, ham amaliyotda ko'pgina chora-tadbirlar ko'rilmogda. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'zining “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli kitobida ta'kidlaganidek, *“Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir”*. Qolaversa, Taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadi ham aynan “Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qi-

lishdagi salohiyatini tubdan oshirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish"dan iborat. 2023-yil 30-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi referendum ham bunga yaqqol misoldir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga alohida "Advokatura" deb nomlangan yangi bobning kiritilishi esa e'tiborning yana bir isboti bo'ldi.

Bundan ko'rinib turibdiki, huquqiy davlat tuzish, fuqarolik jamiyati sari olg'a borish uchun prokuratura yoxud sud organlari kabi advokatlarning ham roli nihoyatda ahamiyatlidir. Ayniqsa, advokatlar uchun litsenziya olishning onlayn tizimi ishga tushirilgani ortiqcha ovoragarchiliklarsiz faqat aholiga xizmat qilib, vaqtini samarali tashkil etishga imkoniyat yaratdi. Bu ham, o'z navbatida, "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori asosida amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 141-moddasida advokatura sohasi, uning vazifalari, umuman, o'rni alohida qayd etildi: "Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi".

Shu o'rinda qayd etish lozimki, advokatura faoliyati fuqarolar, umuman olganda, ularning hayoti bilan bog'liq. Shuning uchun ham uning samarali tashkil etilishi uch asosiy tamoyil bilan belgilanadi. Ya'ni qonunga asoslanib, o'z mustaqilligi va erkinligidan foydalanlangan holda vakolatlaridan foydalanadi. Shu sababli Konstitutsiyaga advokatura haqida alohida modda kiritilishi, o'z navbatida, jamiyatda mavjud muammolarga amaliy yechim bo'la oladi.

Mamlakatimizda "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida inson huquqlari va jamiyat manfaatlari yotadi. Xususan, inson qadri uning qay darajada qonuniy asosda himoya qilinishiga bog'liq. Bunda esa bevosita advokatura organi xodimlari yordami muhimdir. Biroq advokatlar ham huquqiy, ham amaliy jihatdan daxlsiz va mustaqil bo'lolmas ekan, unda, albatta, jamiyat ham o'z huquqlari poymol bo'lishiga jim qarab turishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham "Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda, uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi" degan norma ijtimoiy hayot uchun ahamiyatga molikdir. Shuningdek, "Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmat va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi", degan asosiy shartlar yangi bobning 142-moddasi asosiy mohiyatini ochiqlab, yakunlaydi.

Shu ma'noda bugungi islohotlar talabidan kelib chiqib, butun dunyoda inson huquqlari e'tirof etilishi biz uchun ham yangi o'zgarishlar uchun turtki bo'ldi. Jumladan, 2022-yil 2–5-iyul kunlari Jenevada bo'lib o'tgan "Konstitutsiyaviy islohot: inson qadri va huquqlarini ta'minlash – bosh maqsad" mavzusidagi xalqaro davra suhbatida BMT Inson huquqlari kengashining Sudyalari va advokatlar bo'yicha maxsus ma'ruza xasisi Diego Garisiya-Sayanning: *"Ochiqlik va transparentlikni ta'minlash, sudyalari va advokatlar mustaqilligiga erishish yo'lida salmoqli odimlar qo'yilganiga guvoh bo'lib turibmiz"*, degan fikrlari ham advokatura sohasidagi tub burilishlarning samarasi, desak to'g'ri bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zgarishlar asri bo'lmish XXI asrda yashar ekanmiz, u bizdan takomillashuv va moslashuvni talab etadi. Shuning uchun ham doimo harakatda bo'lishimiz lozim. Ya'ni konstitutsiya deb atalmish asosiy qomusimizning yangilanishi

har tomonlama huquqiy davlat sari borayotganimizni isbotlab turibdi va advokatlar maqomi ham shular jumlasidandir. Zero, doimo xalqimiz bilan muloqotda bo'lib, daxlsizligi davlat tomonidan ta'minlanishi ko'zda tutil-

gan kasb egalari – advokatlar “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan taomil izidan bormoqda, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

**2023-YIL
MAXSUS SON**

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.